O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT
BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
FARG‘ONA FILIALI

“3.6. SOG‘LOMLASHTIRISH JISMONIY TARBIYA TADBIRLARINI TASHKIL ETISH USLUBIYATI”

moduli bo‘yicha

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

“Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari”
malaka oshirish yo‘nalishi uchun



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Farg‘ona - 2024

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI FARG‘ONA FILIALI

“Tasdiqlayman”
Filial direktori
_____A.T.Tishabayev
“___”_____2024-yil

“SOG‘LOMLASHTIRISH JISMONIY TARBIYA TADBIRLARINI TASHKIL ETISH USLUBIYATI”

moduli bo‘yicha

“Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi”
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya yo‘riqchilari malaka oshirish kursi.

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Farg‘ona – 2024 yil

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:	
Kuzibayev R.A.	- Institutning Farg‘ona filiali “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Taqrizchilar:	
Nazirov.O.T	- Institutning Farg‘ona filiali “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi dotsenti.
Norkulov D.R.	- Institutning Farg‘ona filiali “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi PhD dotsenti.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali Ilmiy-metodik kafedrasining 2024-yil 3-yanvardagi 1-sonli bayoni qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri: ***Q.Yu.Nazirov***

MUNDARIJA

I.
MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI **5**

II. NAZARIY TA’LIM MAZMUNI **13**

III. AMALIY MASHGULOTLAR MAZMUNI. **31**

IV. GLOSSARIY **76**

V. ILOVALAR **85**

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Keys-stadi metodi

«Keys-stadi» (Case-study) – bu real yoki modellashtirilgan vaziyatni muhokama va tahlil qilib, xulosa chiqarishga asoslangan ta’lim tizimi. «Keys-stadi» usuli o‘zida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini, jumladan, shaxsiy va jamoaviy taraqqiyot jarayonlarini mujassamlashtirgan bo‘lib, tinglovchilarning turli shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. «Keys-stadi» – faol ta’lim usuli tushunilib, u o‘qituvchi tomonidan ochiq yoki berkitilgan muammosi mavjud aniq vaziyatni ifodalovchi topshiriqni tinglovchilar o‘rtasida muhokama qilishni tashkil etishdir.

Keys – bu hayotiy voqea bo‘lib, o‘z ichida zarur ma’lumotga ega: guruhda muhokama qilish uchun taklif qilinib va masala bo‘yicha tinglovchilarning nuqtai nazarini aniqlashga qaratilgan qaror qabul qilish hamda muammo yoki nizoning yechimini topishga mo‘ljallangan pedagogik uslub.

«Keys-stadi» usuli bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazish misoli.

“Nima uchun?” texnologiyasi.

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.



“Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi

1- bosqich
2- bosqich
3-bosqich Tinglovchilar kichik guruhlarga birlashtiriladi, o’z sxemalarini taqqoslashga va qo’shimcha kiritishga imkon yaratadi. Umumiy sxema jamlanadi.

4-bosqich
Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

«Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko‘rinishi



“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari

1. Qan[illegible]rammadan fo[illegible]‘zingiz ha[illegible] sxematik [illegible]anday bo[illegible]ngiz hal etasiz.

3. Har bir stre[illegible]a fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

[illegible]EER” [illegible]

Bu texnologiya[illegible], ko‘p[illegible]numki[illegible]uammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

-boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o‘rganish jarayonida; uning asosiylarini anglab etish:

-yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik — biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiYoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo‘yicha dalildan natijaga kelish.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs- munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari

haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda talabalarning, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich.

-o‘qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

-o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida talabalarga ma’lumot beradi:

-mashg‘ulot davomida har bir tinglovchi o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

2- bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S — fikringizni bayon etishga sabab ko‘rsating.

M — ko‘rsating sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U — fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog‘ozdagi FSMU ning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘latadi.

3 — bosqich.

-Har bir tinglovchi o‘z qog‘ozlarini to‘latib bo‘lgach, O‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi:

-o‘qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi:

-o‘qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardan fikr va dalillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etadi.

4 — bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a’zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a’zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a’zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a’zolari FSMU ning 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir talaba o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5- bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar:

Guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba’zi bo‘limlarni isbotlash ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

6 — bosqich.

-o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan talabalarga murojaat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo‘llanilishi o‘quv tinglovchilarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o‘quv jarayonining qaysi bosqichida qo‘llanilgani ma’qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo‘llanilishi talabalarga nima beradi va nimaga o‘rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o‘tkazish mumkin?

-ushbu treningda asosiy vazifa nimadan iborat va hokazolar.

Sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etishning maqsadi, vazifalarini va uning natijalarini baholash” g‘oyasini **“SWOT – tahlil”** asosida tahlil qilish.

Eslatma: topshiriqni bajarishda **“SWOT – tahlil”** jadvalidan foydalaning va qoidasiga amal qiling.

Topshiriqni bajarishga 15 daqiqa ajratiladi.

“SWOT — tahlil” jadvali

S	
O	
W	
T	

Qoidaga ko‘ra, SWOT – tahlil muvaffaqiyatni tashkillashtirishiga bog‘liq bo‘lmay,balki muhokamaning natijalari kelgusidagi aniq taklif va loyihalarni ishlab chiqishda hisobga olinishi mumkin. Bundagi ketma-ketliklar quyidagicha bo‘lishi kerak:

	Tahlil tarkiblari	***Natijalarni amalga oshirishning xususiyatlari***
S	Kuchli tomonlari (tashkillashtirishningi chki manbalari)	- barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi; - yangi loyihalar asosi hisoblanadi; - to‘siqlarni yengib o‘tishining yo‘li bo‘lishi

		mumkin.
W	Kuchsiz tomonlari (tashkillashtirishning ichki muammolari)1	— tashkillashtirish faoliyati aynan shularni yengib o‘tishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim; — yangi loyihalar uchun eng muhim maqsad hisoblanadi; — rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi zarur
O	Imkoniyatlar (tashqaridan)	- moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha ko‘rsatkichi yoki tashqi manba bo‘lib xizmat qiladi, — ular tashkillashtirishning maqsadi bilan yoki qanchalik murosaga kelishishi bilan qanchalik mos kelishini hisobga olish zarur bo‘ladi; — yangi loyihalarning asosi yoxud hamkorlikni izlash manbasi bo‘lishi mumkin.
T	Xavflar (tashqaridan)	- Har bir yangi loyihada hisobga olinishi zarur; — ularni yengib o‘tish yoki betaraf etish yo‘llari ishlab chiqilishi kerak; — ba’zida mantiqqa mos kelmaydigan “raqiblar” “ittifoqchilarga” aylanishi bo‘lishi mumkin.

“SWOT – tahlil” jadvalining nomi inglizcha so‘zlarning bosh harflaridan tuzilgan:
Strengths – kuchli tomoni, tashkillashtirishning ichki manbalari mavjudligi nazarda tutiladi;
Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolarning mavjudligi;
Opportunities – tashkillashtirishdan tashqarida rivojlanish uchun mavjud, imkoniyatlar;
Threats – tashqi muhitda tashkillashtirishni muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi xxavf-xatarlar.

KEYSLAR

MINI-KEYS

(aniq muammoli vaziyatdan iborat kichik keys)

1-Muammoli vaziyat (mini-keys):

“Sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida harakatli va milliy o‘yinlari bilan shug‘ullanishi uchun sport mashg‘ulotlari qay tarzda o‘tkazish mumkin?”

Maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lomshtirish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘zlari mustaqil ravishda havas qilib, ta’lim muassasasi sport inshootida faoliyat yuritayotgan sport turlari bo‘yicha seksiyasiga kelib, jismoniy tarbiya yo‘riqchiga murojaat qilib va u bilan tanishib, unga o‘z niyatlarini bildirishdi. Jismoniy tarbiya yo‘riqchi ular bilan suhbatlashib, sport seksiyasidagi mavjud shart-sharoitlar, mashg‘ulotlar tartibi to‘g‘risida ma’lumot berib, mashg‘ulotlarni umumiy guruh tarkibida ertadan boshlasa bo‘laveradi deb jismoniy tarbiya yo‘riqchi talabalarga to‘liq ma’lumot beradi.

Kichik (4-5 tinglovchi) guruhlarga bo‘linib, mazkur vaziyatni tahlil qiling va fikringizni bildiring.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Tinglovchilar sport turi bo‘yicha jismoniy tarbiya yo‘riqchi tomonidan amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalar ketma-ketligini ishlab chiqing va vaziyatni hal qilish uchun yechimni belgilang (juftliklardagi ish).

2-Muammoli vaziyat (mini-keys):

“Sport bilan shug‘ullanishda salomatlikning boshlang‘ich holati ahamiyatlimi?”

6 yoshli qiz bolaning qomati asimmetrik rivojlanib kelmoqda. Shifokorning tavsiyasiga ko‘ra u tegishli davo muolajalarini olishi kerak. Biroq ommaviy axborot vositalari orqali aholini sport bilan shug‘ullanishi lozimligi keng targ‘ibot qilinib kelyapti va buni ko‘rib eshitgan ona badiiy gimnastika bilan shug‘ullanayotgan qizchalarning qomati odatda chiroyligi, tana o‘lchamlari mutanosibligiga ahamiyat berib, qizini aynan badiiy gimnastika sport turiga berish maqsadga muvofiq bo‘lib, natijada qizi ham jismonan rivojlanib, ham xastalikdan xalos bo‘lishiga ishonch hosil qiladi.

Kichik (4-5 tinglovchi) guruhlarga bo‘linib, mazkur vaziyatni tahlil qiling va fikringizni bildiring.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang

(individual va kichik guruhda).

- Shifokor tavsiyasiga ko‘ra 6 yoshli qizning ota-ona tomonidan bajariladigan vazifalar ketma-ketligini ishlab chiqing va vaziyatni hal qilish uchun yechimni belgilang (juftliklardagi ish).

3-Muammoli vaziyat (mini-keys):

“Sport turiga a’zo bo‘lgan bolalar sport inshootlarida shug‘ullanish uchun nimalarga ahamiyat berish lozim?”

Murabbiylar kengashida quyidagi muammo o‘rtaga tashlandi: sport inshootlarida 125 nafar bolalar engil atletika, suzish, gimnastika, badiiy gimnastika, futbol, sport turlari bo‘yicha ta’lim olishadi. Sport inshootlarida bolalarning sport turlari bo‘yicha taqsimlanishi turlicha bo‘lib, natijada murabbiylarning o‘quv yuklamasi haddan tashqari ortib ketgan, boshqa murabbiylarniki esa aksincha – o‘quv soatlari ham, o‘quv yuklamasi ham bajarilmay kelyapti. Masalan, engil atletikada 120 nafar, badiiy gimnastikada 35 nafar, suzishda 70 nafar, sport gimnastikasi va akrobatikada 115 nafar o‘quvchi shug‘ullanadi. Shu vaziyatda kengash a’zolari bolalarni sport turlari bo‘yicha nisbatan teng taqsimlash lozimligini aytib o‘tib, buning uchun eng oson va qulay yo‘li, o‘quvchilar bilan suhbatlashib, ularni “ommabop”roq sport turidan qatnovchilari kamroq sport turlariga o‘tkazishni maqbul ko‘rishdi. Ammo bu fikrga kengashda ishtirok etayotgan maktab uslubchisi va shifokori qarshilik bildirishdi.

Kichik (4-5 tinglovchi) guruhlarga bo‘linib, mazkur vaziyatni tahlil qiling va fikringizni bildiring.

Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish varag‘i

Tahlil bosqichining nomi	Tahlil bosqichining mazmuni	Tahlil natijalari
Keysdagi berilgan vaziyat bilan tanishish	Berilgan aniq vaziyat tahlili va vazifani yechish uchun ma’lumotlarni aniqlash	√
Shu kundagi vaziyat tahlili	Muammo bo‘yicha haqiqiy holatni ko‘rib chiqish va vaziyatli tahlil o‘tkazish. Shu kundagi vaziyat tahliliga nisbatan taxminlarni ilgari surish	√
Muammoni ifodalash	Asosiy muammoni ajratish va uning tarkiblarini (belgilari; isbotlari) aniqlash	√
Muammo yechimining alternativlarini tanlash	Vaziyatli topshiriqda imkoniyatli alternativ yechimlarni ifodalash. Yechimlar variantlarini ko‘rib chiqishda ularni tanlash va asoslash: - ustunligi va kutilayotgan natijalar; - kamchiliklar va xarajatlar	√

II. NAZARIY TA’LIM MAZMUNI

1-Mavzu. Sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish modulining maqsadi, vazifalari.

Reja:

1.1. Sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish modulining maqsadi va vazifalari.

1.2. Jismoniy tarbiya vositalari va unga berilgan umumiy tasnif.

1.3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni jismoniy rivojlantirish.

Tayanch iboralar: Gigiyenik omillar, tabiatning tabiiy kuchlari, jismoniy mashqlar, xilma-xil faoliyat turlari. Modul, Qonun, farmon, qaror, dastur, Vazirlar Mahkamasi, Vazirliklar, Davlat qo‘mitalari, Idoralar, Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

1.1. Sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish modulining maqsadi va vazifalari.

Modulining maqsadi- Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo‘riqchilarining sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish va uni yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha nazariy bilimlarni egallash va uni amalda qo‘llash va sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish shuningdek, ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulining maqsadi:- Maqsadni amalga oshirish uchun mazkur modul bo‘yicha o‘quv materiali mazmuni har xil metod va tomoyillardan foydalanishi, ularni tatbiq etish qoidalarini va uslublarini, harakat ko‘nikma va malakalarga mustaqil tayyorlanishni, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fani atamalarini to‘g‘ri foydalana olishga o‘rgatish;

-“Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari” maktabgacha ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya yo‘riqchilarining zamonaviy kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- Jismoniy tarbiya yo‘riqchilarining ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-modulni o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

- modulni o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

“Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari” yo‘nalishida malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab-chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash;



Maktab o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonini sog'lomlashtiruvchi vazifalardan birgalikda mujassam holda foydalanishni talab etadi.

1.2. Jismoniy tarbiya vositalari va unga berilgan umumiy tasnif.

Gigiyenik omillarga:

a) mashg'ulotlar rejimi;
b) dam olish;
v) ovqatlanish;
g) uyqu;
d) kiyim bosh, poyabzal;



ozlar, x . kiradi.
mashql ar organizmiga ta'siri
ri ba ning yaxshi ishlashiga yordam beradi. Masalan, muntazam sifatli ovqatlanish ovqat hazm qilish organining faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi va boshqa organlarga zaruriy oziq moddalarning o'z vaqtida etib borishini ta'minlaydi, bolaning rivojlanishi va o'sishiga yordam beradi. To'laqonli uyqu nerv tizimiga dam beradi va uning ish qobiliyatini oshiradi. Xonalar, jismoniy jihozlar, atribut, o'yinchoqlar, bolalar kiyimlari va poyabzalining tozaligi kasalliklarning oldini oladi.

Xonalarni to'g'ri yoritish ko'z kasalliklari (shabko'rlik va boshqalar) ning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Kun tartibiga qat'iy rioya qilish uyushqoqlikka, intizomlilikka o'rgatadi.

Tabiatning tabiiy kuchlari.

Tabiatning tabiiy kuchlariga quyosh, havo, suv kiradi, ular jismoniy mashqlarning organizmga ta'sirini kuchaytiradi va kishi ish qobiliyatini oshiradi.

Quyoshli, ochiq havoda yoki suvda (suzish) bajariladigan mashqlar jarayonida ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi (ko'proq kislorod yutiladi, modda almashuvi kuchayadi v. h.k.)

Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirishga, uni yuqori va past

temperaturaga moslaShuv qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Bular natijasida issiqlikni idora qiluvchi apparat harakatga keladi, ya’ni kishi organizmi turli xil meteorologik omillarning o‘zgarishiga o‘z vaqtida javob bera oladigan darajaga keladi.

Quyosh nuri teri ostida D vitaminining saqlanishiga xizmat qiladi, turli mikroblarni o‘ldiradi va bolalarni kasallik (raxit va boshqa) lardan saqlaydi.

Jismoniy mashqlar.

Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning kishiga har tomonlama ta’sir etuvchi asosiy o‘ziga xos shaklidir. Ulardan jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirish, ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarini hal etishda foydalaniladi: aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Xilma-xil faoliyat turlari.

Xilma-xil faoliyat turlari (mehnat, rasm, chizish, narsa yasash…) ga kiruvchi harakatlar agar qomatni to‘g‘ri tutishga rioya qilinsa, shuningdek jismoniy yuklamalar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, sog‘lig‘ining ahvoli, jismoniy rivojlanishi va tayyorlanganligini hisobga olgan holda berilsagina bola organizmiga ijobiy ta’sir etish mumkin.

Uqalash

Uqalash (massaj) -silash, surtish, uqalash, shapatilash, titratish teriga ta’sir qilib, bolaning butun organizmiga ta’sir etadi. Massaj qon tomiri tizimiga ham ta’sir qiladi. Terida nerv uchlari ta’sirlariga javob tariqasida tomir reflekslari yuzaga keladi, kapillyarlar kengayadi qon aylanishi kuchayadi, issiqlik chiqarish ortadi. Massaj organizmni issiq havodan qizib ketishidan saqlaydi. Massaj ta’sirida yog‘ va ter bezlarining sektor funksiyasi yaxshilanadi, mushaklarda oksidlanish-qaytarilish

jarayoni va ularning qisqarish qobiliyati ortadi. Massaj limfa tizimiga ta’sir qilib, suyuqlik oqimini tezlashtiradi. Turli yosh bosqichlarida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni amalga oshirishning samaradorligi asosiy va qo‘shimcha vositalarni to‘g‘ri qo‘shib olib borgan taqdirdagina oshadi. Chunonchi, bolaning dastlabki 3 oyligida gigiyena omillari, tabiatning tabiiy kuchlari katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Yosh orta borgan sari gigiyenik omillar, tabiatning tabiiy kuchlarining roli kamaymaydi, biroq uyqu, ovqatlanish va boshqalarga kamroq vaqt sarflanadi va birmuncha murakkab jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zamin yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi - yosh avlodni jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, ma’naviy boy, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning vazifalari jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berish va ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam (maktabga) tayyorlashdan iboratdir.

1.3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni jismoniy rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi - yosh avlodni jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, ma’naviy boy, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning vazifalari jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berish va ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam (maktabga) tayyorlashdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan **jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining maqsadi va vazifalari** bolalardagi turli jismoniy rivojlanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlik, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir. Muntazam ravishda o‘tkaziladigan jismoniy mashg‘ulotlar bolalarning o‘sishi va rivojlanish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining asosiy maqsadlari quyidagilardir sanaladi:

- Bolalarning salomatligini mustahkamlash;
- Bolalarni jismonan baquvvatlashtirish;
- Bolalarning axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni jismonan tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1-vazifa. Bolalarni maqsadga to‘g‘ri yo‘naltirilgan harakatlarni faollashtirish uchun shart-sharoit yaratish**;**

-maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya xonalarini, maydonchalarini kerakli jihozlar bilan yetarli qilib ta’minlash.

3-vazifa. Harakatning hayot uchun muhim turlarini shakllantirish: yurish, yugurish, emaklash, sakrash, o‘rmalash, otish, ilib olish, suzish, velosipedda uchish, oyoq, qo‘l, tana, bosh harakatlarini rivojlantirish;

bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini bolalarga qiziqarli metodlar yordamida tashkil etishni rejalashtirish.

4-vazifa. Saflanish va qayta saflanish.

Bu harakat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mashg‘ulotlarning boshidan to yakunigacha davom etadi.

5-vazifa. O‘yin harakatlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik Shu bilan birga gavdani tik tutish malakalarini oshirish;

- jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining asosiy, yakuniy qismlarida tashkil etiladigan harakatli hamda kam harakatli bir nomdagi o‘yinlar o‘ynalishi jarayonini bolalarni yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkablashtirib borish.

6-vazifa. Bolalar qomatlarini to‘g‘ri shakllantirishga ta’sir ko‘rsatish va yassi oyoqlilikni oldini olish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida bolaning qomati va yassi oyoqlilikni oldini olishga ta’sir etuvchi mashqlarni qo‘llash.

7-vazifa. Faol harakatga bo‘lgan qiziqishni tarbiyalash.

8-vazifa. Bolalarga jismoniy mashq va o‘yinlarning foydasi, asosiy gigiyenik talablar va qoidalari haqida yetarli darajada tasavvur va bilimlar berish.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollar:

1. Ushbu modulning to‘liq nomi?
2. Jismoniy tarbiya vositalariga nimalar kiradi**?**
3. Bolalar jismoniy tarbiya mashg‘ulotining asosiy maqsadlari nimalardan iborat**?**
4. Modulining maqsadi nima**?**
5. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni jismonan tarbiyalashning asosiy nechta vazifasi mavjud**?**

2-mavzu. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Hukumat qarorlari mazmuni va mohiyati.

Reja:

2.1. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Hukumat qarorlari mazmuni va mohiyati.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusini joriy qilinishi va amalga oshirilgan vazifalar to‘g‘risida.

2.3. Jismoniy tarbiya sog‘lomlashtirish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishda sport mashg‘ulotlari atamalari.

Tayanch iboralar: sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha kalendar reja va ssenariylar, musobaqa Nizomi, o‘yin, harakatli o‘yinlar, mazmunli, qoidali, kam harakatli, syujetli-mazmunli, milliy va harakatli o‘yinlari, o‘tkazish metodikasi.

2.1. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Hukumat qarorlari mazmuni va mohiyati.

Bugungi kunda Respublikamizda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi tub islohotlar ta’lim-tarbiya va sport-sog‘lomlashtirish ishlarini ham mutlaqo yangicha mazmun, shakl va vositalarda tashkil etish, ular uchun yaratilgan misilsiz imkoniyatlardan yanada to‘laroq foydalanib, o‘sib kelayotgan yoshlarimizni Vatanga munosib farzandlar qilib tarbiyalashdek, o‘ta muhim vazifalarni hal qilishga undaydi.

Respublikamiz hukumati tomonidan maktabgacha va o‘quvchi-yoshlarni jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni sport-sog‘lomlashtirish ishlariga keng jalb qilish, bo‘sh vaqtlarini ko‘ngilli mazmunli tarzda o‘tkazish, sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish ishlariga katta ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlardan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi.

Yosh avlodni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, sport turlari bo‘yicha iste’dodli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirish, moddiy-texnik bazalarni mustahkamlash hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois yurtimizda jismoniy tarbiya hamda sportga davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘RQ-394-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017 yil 15 sentyabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3276-sonli, 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli, 2017 yil 30 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, PQ-3305-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-sonli Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-sonli qarorlarida hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va ommaviy-sport tadbirlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sportni to‘g‘risida”gi O‘RQ-394-sonli (yangi tahrirdagi) Qonunning maqsadi -jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonuning tuzilishi- 1-bob. Umumiy qoidalar, 2-bob. Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat tomonidan tartibga solish, 3-bob. Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni tashkil etish, 4-bob. Ta’lim tizimida, fuqarolarning ish joyi, yashash joyi hamda dam olish joyida jismoniy tarbiya va sport, 5-bob. Sport zaxirasini tayyorlash, 6-bob. O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari va ularni shakllantirish, 7-bob. Jismoniy tarbiya va sportning moddiy, tibbiy, moliyaviy hamda boshqa ta’minoti, 8-bob. yakunlovchi qoidalar.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Xalq ta’limi vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari doirasida:

bolalar va o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport tadbirlarini tashkil etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

xalq ta’limi tizimining ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida sport musobaqalarini («Umid nihollari») tashkil etishda ishtirok etadi;

bolalar sportining moddiy-texnika va resurs bazasini rivojlantirish choralarini ko‘radi;

bolalarga sportga muhabbatini singdirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni sport bilan shug‘ullanishi, sog‘lom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma’naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish, bolalarni salbiy ta’sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

bolalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy shakllari hamda usullarini, bolalarning jinsi va yoshiga qarab ularga sport ko‘nikmalarini singdirishning, sportga qobiliyatli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport ta’lim muassasalarida o‘qitish uchun tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni hamda joriy etishga ko‘maklashishni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Xalq ta’limi vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

20-modda. O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari milliy sport turlari va xalq o‘yinlari O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosining ajralmas qismi, aholida vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, xalqaro maydonda mamlakatning obro‘-e’tiborini yuksaltirishga intilish tuyg‘ularini tarbiyalash poydevoridir.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari, shuningdek boshqa tashkilotlar:

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashadi hamda ularni aholi o‘rtasida yoyish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini mustahkamlashga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

21-modda. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazish.

- Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari bu tadbirlarni o‘tkazish shartlarini, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazishni moliyalashtirish shartlarini belgilaydi, bunday tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul bo‘ladi, ushbu tadbirlarni

to‘xtatish va bekor qilish, ularni o‘tkazish vaqtini o‘zgartirish va ularning yakunlarini tasdiqlash huquqiga ega.

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari quyidagi mutlaq huquqlarga ega:

jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining nomi va ramzlaridan foydalanish;

jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o‘tkazish joyida tovarlar, ishlar va xizmatlar reklamasini joylashtirish;

jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida foydalaniladigan sport ekipirovkasi, sport uskunalari va anjomlarini ishlab chiqaruvchilarni belgilash;

jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini ularning tasviri va ovozini har qanday usullar bilan yoki turli texnologiyalar yordamida namoyish qilish orqali, shuningdek mazkur namoyish (translyatsiya)ni yozib olishni va tadbirni fotosuratga hamda videotasvirga tushirishni amalga oshirish orqali yoritish.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining nomlaridan, ular asosida tuzilgan so‘z birikmalaridan hamda mazkur tadbirlar ramzlaridan uchinchi shaxslarning foydalanishi jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari bilan yozma shaklda tuziladigan kelishuvlar asosida amalga oshiriladi, bunday nomlardan, ular asosida tuzilgan so‘z birikmalaridan va mazkur tadbirlar ramzlaridan axborot maqsadida yoxud ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yoritish huquqini olgan uchinchi shaxslar tomonidan ushbu huquqlarning foydalanish hollari bundan mustasno.

Ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari tomonidan tasdiqlangan, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining to‘g‘ri ko‘rsatilgan nomlaridan foydalanilishi kerak. Bunda mazkur nomlar reklama hisoblanmaydi.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yoritish huquqidan uchinchi shaxslar faqat jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilarining yozma ruxsatlari bilan yoxud uchinchi shaxslar tomonidan ushbu huquqlarning bunday tadbirlar tashkilotchilaridan sotib olinganligi to‘g‘risidagi yozma shakldagi kelishuvlar asosida foydalanishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari to‘g‘risidagi qoidalarning, nizomlarning (reglamentlarning) mazmuniga doir alohida sport turlarining xususiyatlarini nazarda tutadigan umumiy talablar maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Faqat rasmiy sport musobaqalarigina O‘zbekiston Respublikasi chempionati, kubogi yoki birinchiligi maqomiga va nomiga ega bo‘lishi mumkin.

Rasmiy sport musobaqalarini o‘tkazishga ushbu Qonun 26-moddasiga muvofiq tasdiqlangan sport turlarining qoidalari asosidagina yo‘l qo‘yiladi.

Xalqaro sport tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi hududida faqat bunday tadbirlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorning tegishli sport turlari bo‘yicha sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishib olinishi sharti bilan o‘tkazilishi mumkin.

24-modda. Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi rasmiy sport yoki ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari ro‘yxatini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi sport terma jamoalarini xalqaro sport tadbirlariga tayyorlash va ularning ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha tadbirlar ro‘yxatini belgilovchi hujjatdir.

Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kiritiladi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi tegishli kalendar yil boshlanguniga qadar tasdiqlanadi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritilgan sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari rasmiy sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlaridir.

29-modda. Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish-Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

asosiy ta’lim dasturlari doirasida davlat ta’lim standartlari bilan belgilangan hajmlarda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha majburiy mashg‘ulotlarni, shuningdek qo‘shimcha ta’lim dasturlari doirasida qo‘shimcha (fakultativ) jismoniy mashqlar va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

ta’lim oluvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan yoshlarning jismoniy tarbiya-sport tayyorgarligi bo‘yicha tadbirlar majmuini o‘tkazish uchun sport jihozlari va anjomlari bilan ta’minlash;

ta’lim oluvchilarda individual qobiliyatlari va sog‘lig‘i holatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sport ko‘nikmalarini shakllantirish;

o‘quv mashg‘ulotlari paytida jismoniy tarbiya tadbirlarini amalga oshirish;

ta’lim oluvchilarning jismoniy tarbiyasi tashkil etilishi ustidan tibbiy nazorat olib borish;

ota-onalarda yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarda bolalarining sog‘ligi va ularning jismoniy tarbiyasiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish;

bolalar va yoshlarning jismoniy tayyorgarligini hamda jismoniy rivojlanishini har yili monitoring qilish;

ta’lim oluvchilar ishtirogida sport tadbirlarini, shu jumladan xalq ta’limi tizimining ta’lim muassasalari o‘quvchilari («Umid nihollari»), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari («Barkamol avlod») hamda oliy ta’lim muassasalari talabalari («Universiada») ishtirokida uch bosqichli sport musobaqalari tashkil etilishi va o‘tkazilishiga ko‘maklashish.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusini joriy qilinishi va amalga oshirilgan vazifalar to‘g‘risida.

Jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg‘u beriladi. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.



To‘rtinchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalarini nazarda tutadi. Prezidentning Sirdaryo hamda Namangan viloyatlariga qilgan amaliy tashrifi davomida mazkur hududlardagi tuman va shahar kutubxonalariga bir necha yuz ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. “Ma’rifat karvoni” tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi. Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta’limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va maktabgacha va umumta’lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo‘shimcha 1,5 mingta to‘garak tashkil etish vazifasi qo‘yildi.

Tashabbuskor iste’dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va “Yoshlar klublari” tashkil qilish zarurligi ta’kidlandi.

Taniqli san’atkor va iste’dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko‘makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o‘sha joylarda madaniyat va san’atni rivojlantirishga mas’ul bo‘ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi.

Musiqa va san’at sohasida oliy ma’lumotli kadrlarni ko‘paytirish masalasiga ham e’tibor qaratildi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim hamda Xalq ta’limi vazirliklariga muayyan mavzular bo‘yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o‘tkazilishini tashkil qilish topshirildi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, diyorimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko‘rsatkichi mamlakat bo‘yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog‘istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos.

Yig‘ilishda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi. Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o‘rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag‘lar manbasini aniqlash vazifasi yuklatildi.

Olis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga O‘zmilliybank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g‘olib bo‘lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o‘quv yurtlarining maxsus sirtqi bo‘limlarida maqsadli o‘qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar va o‘smirlar sport maktablari sonini ko‘paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Videoselektorda yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi. Shavkat Mirziyoyev Prezident tomonidan 5 ta muhim tashabbus yuzasidan davlat rahbari boshchiligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yoshlarimizga bo‘lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg‘u berildi.

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

2.3. Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishda sport mashg‘ulotlari atamalari.

Texnologiya- Muayyan ishlab-chiqarish sohasidagi usullar va jarayonlar majmuasi.

Metod- Bu bilimga erishish usuli, olimning ma’lum tarzda tartibga solingan, ongli va izchil faoliyatidir.

Maktabgacha ta’lim- Turli yo‘nalishdagi maktabgacha ta’lim dasturini amalga oshiradigan ta’lim muassasasi.

Ta’lim- O‘qitishning mahsuli bo‘lib, o‘qitish jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallagan bilim, ko‘nikma, malakalardir.

Anglash- O‘rganilayotgan predmetni tushunish va u haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish.

Ta’limda ko‘rgazmalik- Didaktik prinsiplaridan biri. Ko‘rgazmalik o‘quv materiallarini puxta va chuqur egalashtirishga, bolalarni bilim doiralarini kengaytirishga va tafakkurlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Muloqot- Ikki yoki undan ortiq bo‘lgan shaxslarning fikr almashinuvi.

O‘yin- Inson faoliyatining tarixan tarkib topgan, asosan uning bolalik davriga xos bo‘lgan maxsus turi.

O‘yin faoliyati- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy o‘z–o‘zini qaror topshirishga, “men va jamiyat” tushunchasini ifodalashga, hayoli vaziyat, o‘yindagi rol va o‘yin qoidalari.

Harakat- Mashg‘ulot jarayonida amalga oshiriladigan shartli va shartsiz faoliyat.

Yugurish- Insonning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishdagi murakkab harakat faoliyati hisoblanib, yurishdan uchish fazasi bilan farqlanadi.

Sakrash- To‘siqlardan o‘tishning tabiiy usuli bo‘lib, qisqa vaqt ichida asab-muskul kuchiga maksimal zo‘r berish bilan tavsiflanadi.

Tanaffus- Dars, mashg‘ulotlar va o‘yinlar oralig‘idagi dam olish vaqti.

Dars- Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari asosida amalga oshiriladigan jarayon.

Ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari — aholini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga jalb etishga va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar;

Ommaviy sport — sportning tashkil etilgan va mustaqil mashg‘ulotlar, shuningdek ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o‘tkazish orqali aholini jismoniy tarbiyalash, sog‘lomlashtirish, kamol toptirish hamda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etishga doir qismi;

Sport turi — jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi bo‘lib, u insonning sport musobaqalariga o‘ziga xos tarzda tayyorgarlik ko‘rishi bilan ajralib turadi, sport musobaqalarini o‘tkazish va ularda ishtirok etishga doir talablar, tartib va shartlar belgilanadigan qoidalarga, nizomga (reglamentga) ega bo‘ladi;

Sport — odamlarning muayyan qoidalar bo‘yicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo‘lgan havaskorlik asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar;

Sport - qisqa ma’noda shaxsiy musobaqa faoliyati deyilsa, keng ma’noda shaxsiy musobaqa faoliyati, shu faoliyat asosidan kelib chiqadigan maxsus tayyorgarlik hamda uning me’yor va yutuqlari tushuniladi.

Sport tadbirlari — sport musobaqalarini, o‘quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha boshqa tadbirlarni o‘z ichiga oladigan tadbirlar;

Sport inshooti — sport tadbirlari va ommaviy sport tadbirlarini, sport turlari bo‘yicha o‘quv-mashq mashg‘ulotlari va o‘quv-mashq yig‘inlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan, o‘ziga qo‘yiladigan norma va talablarga javob beradigan hamda tegishli pasportga ega bo‘lgan yopiq yoki ochiq tipdagi ixtisoslashtirilgan inshoot;

Sport musobaqasi – sportchilar o‘rtasida yoki sportchilar jamoalari o‘rtasida har xil sport turlari (sport tarbiyasi) bo‘yicha musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan nizom (reglament) bo‘yicha o‘tkaziladigan bellashuv;

Sport musobaqalari- ko‘rsatish uslubi, sport yutuqlarini baholash va taqqoslash, sport sohasidagi raqobatlarni o‘ziga nisbatan boshqarishdir. Sport musobaqalari, boshqalar bilan muloqotda bo‘lishni kerakli omili, shaxsni tashkil topishini vositasi, inson imkoniyatlarini anglab etish, etalon ko‘rsatkichlarini tuzishga qaratilgan.

Sport musobaqalarini maqsadi- kuchli sportchilar va jamoalarni aniqlash, sport mahoratini takomillashtirish, jismoniy madaniyat va sportni targ‘ib qilish, sport tashkilotlari, murabbiylar, sportchilar, hakamlar faoliyatiga obyektiv baho berishdir.

3.	Ota-onalarni sport musobaqalariga va to‘garaklarga jalb etish.	Yil davomida
4.Tarbiyachi bilan hamkorlikdagi bajariladigan ishlar		
1.	Mashg‘ulotlarni tarbiyachi bilan hamkorlikda olib borish (07─03)	Yil davomida
2.	Bolalarning umumiy holatini tekshirish, jismoniy rivojlanishda ortda qolgan bola bilan ishlashda tarbiyachi bilan hamkorlik qilish.	Yil davomida

Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi: _____

SPORT BAYRAMLARI SSENARIYLARI

“Sog‘lomjon va polvonjon”

quvnoq estafeta

(4-5 yosh uchun)

Estafetada bolalardan ikki jamoa (yarim doira, to‘g‘ri saf, to‘lqinsimon va bosh.) saf tortib musiqa sadolari ostida maydonchaga kirib keladilar (qo‘llarida gul, bayroq lenta va shunga o‘xshash buyumlar bo‘lishi mumkin) va boshlovchi ishorasi bilan shartlarni bajarishga kirishadilar.

1-shart. “Tezlikni oshir” bunda bolalar belgilangan masofaga tez yugurib ortlariga qaytadilar.

2-shart. “Epchil quyonlar” bolalar ikki oyoqlab sakrab belgilangan masofaga borishlari va ortlariga ham sakrab qaytishlari kerak.

3-shart .“To‘pni uzat” bunda bolalar zich holatda, bir birlariga yaqin turadilar va qo‘llarini tepaga ko‘tarib to‘pni sherigiga uzatadi.To‘p yetib borgan ishtirokchi safning oldiga kelib to‘pni yana uzatib yuboradi va shu tariqa to birinchi turgan qatnashchi oxiriga borguncha davom etadi.

4-shart. “Buyumga tegib ketma” bu shartda ishtirokchilar ilon izi qilib terib qo‘yilgan buyumlardan (kegli, piramida, ustuncha) ularga tegmasdan marragacha yugurishi va ilon izi bo‘ylab qaytishi kerak.

5-*shart.* “Gardishdan sakra” bu shartda ishtirokchilar ketma ket qo‘yilgan gardishlardan sakrab borib savatga to‘p tashlaydilar va ortga to‘g‘ri yugurib qaytadilar.

Yuqoridagi shartlarni yaxshi va bexato bajargan guruh g‘olib sanaladi hamda ikki jamoalar ham esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadilar. Bolalar yutishga ham yutqazishga ham ruhan tayyor bo‘lishlari lozim. Jismoniy tarbiya murabbiy buni inobatga olishi va ishtirokchilarni to‘g‘ri yo‘naltirishi lozim. Estafeta so‘ngida albatta musiqiy chiqishlarni amalga oshirish bolalardagi charchoqni yozishga xizmat qiladi.

“Sog‘lomjon – polvonjon”

(5-6 yosh uchun)

1-shart: “Mo‘ljalga ol!” bunda bolalar belgilangan masofaga qo‘llarida to‘p bilan tez yugurib, savatning ichiga to‘pni tushirib, ortlariga qaytadilar.

***2-shart*:** ”Kenguru”ishtirokchilar qop shaklidagi xaltachani kiyib kenguruga o‘xshab sakragan holda marraga borib sakragan holda qaytib keladilar.

3-shart: “Kim chaqqon” qatnashchilar to‘pni oyoqlari orasiga qistirib olib marraga yetib olgach, to‘pni qo‘llariga olib yugurib ortga qaytadilar.

4-shart. “Qaysi jamoa birinchi” bu shartga tarbiyachi avvaldan tayyorgarlik ko‘radi. Mayda motorika ishtirok etadigan ushbu shartda ishtirokchilar jamoa bo‘lib ishlaydilar, daraxtni istagan barg va gul yoki mevalar bilan bezashlari lozim.

5-shart. *“*Aylanib o‘t!” bu shartda ishtirokchilar ilon izi qilib terib qo‘yilgan buyum (kegli)lar orasidan marragacha to‘pni yerga urib borib keladilar.

6-shart. *“*Buyumni urib tushir!” bu shartda ishtirokchilar qator qilib terib qo‘yilgan buyum (kegli)larni to‘p bilan urib yiqitadilar. Estafeta quvnoq kayfiyatda yakunlanadi.

***«*Otam, onam va men sportchilarmiz »** mavzusidagi

Oilaviy sport bayramining
ssenariysi

O‘tkaziladigan sana: _____
O‘tkazish vaqti: _____
O‘tkazish joyi: _____

Dastur maqsadi: bolalarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, yosh avlodni jismonan barkamol, baquvvat va sog‘lom bo‘lishiga, chiniqishiga, umumiy ish qobiliyatining o‘sishiga erishish, oila manfaati uchun harakat qilishi, sport bilan shug‘ullanishi kundalik turmush tarziga singdirish, ota onalar bilan sport inshootlariga qatnashish va ular uchun ajratilgan sport jihozlaridan unumli foydalanish,

Musobaqa ishtirokchilari

4ta, ota ona va bolalardan tashkil topgan jamoalar, (maydon sharlar va gullar bilan bezatilgan, oilalarning shiorlari ilingan)

Boshlovchi:

Sog‘lom turmush tarzini qur,
Sport bilan olg‘a yur.
O‘yna, sakra, chop, yugur
Yurt bayrog‘in olg‘a sur!

Assalomu alaykum, aziz mehmonlar va musobaqamiz ishtirokchilari. Yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda sport bu asosiy vositadir. Bolajonlar orangizda sportni yoqtirmaydigan bolalar yo‘q bo‘lsa kerak ─a? (bolalar javoblari)

Nimjon: men yomon ko‘raman sportni, chunki sport bilan shug‘ullanishni hech ham hovlamayman va tezda charchab qolaman.

Boshlovchi: Nimjon sen sport bilan shug‘ullanmaysan, agar sen sport bilan doimo shug‘ullansang, hech ham charchab qolmaysan, sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi bolalarga kasalliklar hech ham yaqin yurmaydi, doimo sog‘lom va baquvvat bo‘lishadi, ishonmasang sport bayramini tomosha qil!

─ biz bugun oilaviy jamoa bo‘lib sport bilan shug‘ullanamiz.

1- shart: “To‘pni savatga tushirish” Oilaviy jamoalar. 1.Ota, 2.Ona, 3.Bolalar savatdagi to‘plar soniga ko‘ra g‘olib jamoa aniqlanadi.

-marhamat, Oilaviy jamoalar omad sizga yor bo‘lsin!

Uyg‘onib erta tongda,
Sog‘liq bo‘lsin deb tanda,
Sportni qilma kanda,
Sog‘ bo‘lasan o‘shanda!

2 – shart “Arqonchada sakrash” qaysi jamoaning ishtirokchilari ko‘p sakrasa o‘sha g‘olib chiqadi.

- O‘zbegim o‘g‘lonlari
- Sportchi polvonlari
- Dunyoga dong taratgan
- Yurtim qahramonlari
- Boks, kurash futbolda
- Suzish va voleybolda
- Yutuqlari behisob
- Yurtim or-vijdonlari!

3─ shart “Yengil atletika ─ yugurish” 60m masofaga(ota va onalar orasida)yugurish. Marraga birinchi bo‘lib yetib kelgan jamoa g‘olib hisoblanadi.

Aqlimiz yig‘ib boshga
O‘ynaymiz shaxmat ─ shashka
Biz o‘zbek farzandlari
Doim tayyor kurashga!

4─**shart Intellektual o‘yinlar ─”Shaxmat va shashka”** (Oilaviy juftliklar)

Musobaqa natijalariga ko‘ra 1─**shart** g‘olibi ”─────”, 2─**shart** g‘olibi”─────”, 3─**shart** g‘olibi”─────”, 4─**shart** g‘olibi” ─────” deb topildi, marhamat jamoalar esdalik sovg‘alarini qabul qilib oling (jamoalar to‘plagan ballarini e’lon qilinadi va faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadilar).

Nimjon: menga bu bayram judayam yoqdi, endi men sport bilan doimo shug‘ullanaman, kelasi sport bayramiga ota─onam bilan birga ishtirok etaman.

Boshlovchi: biz kelasi sport bayramimizda albatta Nimjon va uning oilasini ham kutamiz, kelasi bayramgacha xayr bolajonlar! Sport bilan muntazam shug‘ullanishni unutmang.

Mening oilam barkamol,
Unib o‘sgan nav nihol

Chunki biz ahil─inoq.
Sport bilan biz o‘rtoq.
Dadam, oyim va ukam,
Akam, singlim va men ham
Tongdan kuylab madhiya,
Qilib badan tarbiya
Shoshamiz o‘qish, ishga,
Ko‘p bilimlar olishga,
Men oilamning polvoni,
Vatanning mard o‘g‘loni!

Maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lomlashtirish — jismoniy tarbiya tadbirlarining yillik kalendar rejasini tuzish. Bog‘chada sport musobaqalarining o‘tkazilishi sog‘lomlashtirish — jismoniy tarbiya tadbirlari haqida kalendar ish rejaga muvofiq va bog‘cha mudiralarining nazoratida bo‘lishi kerak. Bog‘chaning ichki musobaqalari guruhlararo o‘tkaziladi. Bundan tashqari musobaqalar shaxsiy birinchilik uchun ham o‘tkaziladi. (“Yuguruvchilar kuni”).

Bog‘cha birinchiligi uchun guruhlararo musobaqalar spartakiada shaklida ham o‘tkaziladi. Musobaqalar har xil guruhlarda o‘tkazilishi mumkin. “Tarbiyachilar kuni”ga, “Mustaqillik kuni”ga, “Navro‘z kuni”ga bag‘ishlab va boshqalar.

Sport va sog‘lomlashtirish tadbirlarining shakllari quyidagilardan iborat:

1) An’anaviy sport tadbirlari;
2) Noan’anaviy tadbirlar;
3) Kun rejimida tashkil qilinadigan va o‘tkaziladigan sog‘lomlashtirish tadbirlar;
4) Suzish;
5) Yugurish va yurish;
6) Turistik sayr va sayohatlar;
7) Chiniqtirish.

1) An’anaviy sport tadbirlariga ta’lim muassasalarida mustaqillik kuniga bag‘ishlab o‘tkaziladigan sport tadbiri, murabbiy va ustozlar kuniga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbir, 8 - dekabr Konstitutsiya kuniga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbir, yangi yilga bag‘ishlab o‘tkaziladigan sport tadbirlari, 8- mart xotin- qizlar kuniga bag‘ishlangan sport tadbiri, 21- mart “Navro‘z” bayramiga atab o‘tkaziladigan sport tadbiri va boshqalar. Bu yuqoridagilar an’anaga aylangan butun fuqoralar, qatnashadigan sport bayramidir.

2) Noananaviy sport tadbirlar, yil davomida olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport hamda ommaviy sog‘lamlashtirish jismoniy tarbiyalar ya’ni ta’lim muassasasining yillik kalendar rejasi asosida o‘tkaziladigan tadbirlar.

3) Kun rejimida tashkil qilinib o‘tkaziladigan sog‘lamlashtirish tadbirlariga, ertalabki badan tarbiya, chiniqtirish, mashg‘ulotgacha bo‘lgan

gimnastika, katta tanaffusdagi o‘yinlar, kun uzaytirilgan soatlardagi jismoniy mashqlar suzish – sog‘lomlashtirish guruhlarida suzishni tashkil qilish.

4). Yugurish va yurish mashg‘ulotini tashkil qilish.

5). Sog‘liqni saqlashni yaxshilashga, ommaviy sog‘lomlashtirish va sportni, turizmni rivojlantirishga fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning bo‘sh vaqti mazmunli o‘tishini ta’minlashga qaratilgan muhim tadbirlar ko‘rilishi zarur.

Sog‘lom odam faol va uzoq foydali ijodiy mehnat qilib, to‘laqonli kechiradi. Akademik I.P.Pavlov “Tabiatning bebaho boyliklaridan foydalanish, bu boyliklaridan foydalanish, bu boyliklaridan bahramand bo‘lish uchun inson sog‘lom, kuchli va aqlli bo‘lmog‘i” degan edilar.

Sport sho‘balari – sportning u yoki bu turi bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilar uchun tashkil qilinadi. Sport shu’balarini tashkil qilish uchun eng avvalo sharoit hisobga olinadi. Umumiy rahbarlik jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga yuklatiladi.

4.2 Maktabgacha yoshdagi bolalarni barkamollashtirishga va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatli va milliy o‘yinlar.

Harakatli o‘yinlar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks ta’lim-tarbiya jarayonidir. Bu jarayonning asosini tashkil etuvchi bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishga, harakat ko‘nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg‘ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijobiy ta’sir etadi. Harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari va metodlaridan biri sifatida yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni samarali hal etishga yordam beradi. Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda erishiladigan sog‘lomlashtirish samarasi bolalarning o‘yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola psixikasiga yaxshi ta’sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Emotsional ko‘tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo‘lgan maqsadga erishishga intilish uyg‘otadi va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o‘zaro mosligida, fazoda va o‘yin sharoitlarida aniq mo‘ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur’atda bajarilishida ifodalanadi. Bunda bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asnosida turli to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi.

Harakatli o‘yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayonida bola o‘z e’tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. U o‘yin shartlariga muvofiq harakat qiladi, bunda chaqqonlik ko‘rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi. Shuning uchun masalan, «Bo‘ri jarlikda» o‘yini bolalar yugurib kelib uzunlikka sakrashni bilib olganlaridan keyin beriladi.

Harakat faoliyati sifatida harakatli o‘yin muayyan maxsus xususiyatlarga ega. U boladan signal va o‘yinda to‘satdan bo‘ladigan o‘zgarishlarga tezda javob berishni talab qiladi. O‘yinda yuz beradigan turli vaziyatlar, harakatlar mushak tarangligi darajasining o‘zgarishi zaruratini keltirib chiqaradi. Masalan, «Tuzoq» o‘yinida har bir bola boshlovchi harakatini diqqat bilan kuzatib borishi lozim: boshlovchi unga yaqinlashganda qarama-qarshi tomonga shitob bilan qochib o‘tadi; o‘zini xavfsiz sezgach, sekin harakat qilib, to‘xtab turadi; boshlovchi yaqinlashganda yana harakatini tezlashtiradi.

Deyarli har bir harakatli o‘yinda harakatlar va bolalar harakatiga oid signallar mavjud. Bunday faol harakat faoliyati bola qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarini takomillashtirgan va muvozanatlashtirgan holda nerv tizimni mashq qildiradi, shuningdek, kuzatuvchanlik, topqirlik, o‘zgaruvchan atrof-muhitda mo‘ljal olish qobiliyati, yuz bergan mushkul holatdan qutilish yo‘lini topish, tezda qaror qabul qilish va uni amalga oshirish, botirlik, chaqqonlik tashabbus ko‘rsatish, maqsadga erishishning mustaqil usulini tanlashni tarbiyalaydi.

Harakatli o‘yinlarning kelib chiqishi qadim xalq pedagogikasiga borib taqaladi. Ilk yoshli bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakati bilan bog‘liq bekinmachoqlar, ermak o‘yinlar yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega bo‘lgan (o‘z ichiga bolalarni rom qiluvchi o‘yin boshlanmalari, xirgoyilari, sanashmachoqlarni oluvchi) xalq o‘yinlari katta o‘rin olgan. Bularning hammasi hozirga qadar badiiy jozibadorligini, tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda, shu nuqtai nazardan ular qimmatli folklor o‘yinlarini tashkil etadi.

Harakatli o‘yinlarni turlari. Bolalarning har tomonlama rivojlanishida o‘yin asosiy faoliyat turi bo‘lib hisoblanadi. Bola yoshligida qanchalik ko‘p o‘ynasa, bu uning keyinchalik maktabda yaxshi o‘qishi, kelgusi mehnat faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin bu bola faoliyatining yorqin turi sanaladi. Zero, o‘yin jarayonida uning irodasi, hissiyoti, ehtiyoji, qiziqishlari, ta’sirchanligi, ya’ni butun shaxsiyati shakllanadi.

O‘yin buyumli va ijtimoiy voqelikdagi harakat qilish va uni anglashga qaratilgan jarayondir. Kichik Yoshdagi bolalarga dastlabki asosiy buyumlar bilan bajariladigan harakatlar qiziqarli tuyiladi va ular kelgusida bolalarning o‘yindagi kattalar munosabati va harakatlarini qayta aks ettirishlariga xizmat qiladi. Qadimdan o‘zbek xalqi bolalariga turli xalq o‘yinlarni o‘ynatib o‘rgatib kelganlar va o‘yinlar orqali uddaburonlik, chaqqonlik, topqirlik, mehr-shafqatlilik kabi fazilatlarni tarkib toptirib, mehnatga o‘rgatib boriladi.



Harakatli va kam harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda har bir yosh guruhining sharoiti hisobga olinadi, chunonchi: bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi, harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining ahvoli, individual tipologik xususiyatlari, yil fasli, kun tartibi, o‘yinni o‘tkazish o‘rni, shuningdek, bolalar qiziqishlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Harakatli o‘yinlar ichida guruhning barcha bolalari bir vaqtda faol ishtirok etadigan o‘yinlar («Chumchuqlar va avtomobil», «Kimning zvenosi tezroq saflanadi», «Ayyor tulki» va boshqalar) ham bor. Shu bilan birga, harakatlarning navbatliligi asosiga qurilgan («Quvlashmachoqlar», «Kim lentani tezroq tortadi», «Xaltachalarni almashtirish» va hokazo) foydali va qiziqarli o‘yinlar ham mavjud. Mazkur o‘yinlar irodani tarbiyalashga yordam beradi, o‘zini tuta bilishga o‘rgatadi.

Biroq bunday o‘yinlar noto‘g‘ri tashkil etilsa, u holda bolalar o‘yin topshiriqlarini bajarish uchun uzoq vaqt navbat kutib qoladilar. Kutib qolish, statik holatlarning bir xilligi, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarda qiziqishning, harakat reaksiyasi tezligining susayishiga olib keladi; katta yoshdagi bolalar arzimagan bahona bilan o‘yindan chalg‘iydilar, bu esa mazkur holning sabablarini hisobga olmagan tarbiyachida norozilik uyg‘otadi. Bunday paytda o‘yinda kichik guruh ishtirok qiladi va u uzoq davom etmaydi, bolalar faol bo‘lib o‘yin **oxirigacha diqqat** qiladilar.

Syujetli-rolli o‘yinlarning shartli real vaziyati bolaga o‘ziga tanish hayotiy obrazning qayta bajarishida yordam beradi. Bola harakatlarning o‘zidan, qush va hayvonlarga taqlid qilishdan quvonadi: qushdek parvoz qiladi, quyonchadek sakraydi, toychoqdek chopadi. Shuning uchun ham o‘yin paytida

kulgi, quvonchli xitoblar eshitilib turadi va o‘yin jarayonining asosida endi bolaning oddiy ijrochilik faolligi, o‘yin obraziga kirishga dastlabki urinishlari qaror topadi.

Milliy o‘yinlar bolalarning kuch va qobiliyatlarini o‘stiradi, ularni hayotga tayyorlaydi. Xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari kabi milliy harakatli o‘yinlar xam uzoq tarix osha bizgacha etib kelgan. Milliy o‘yinlar orqali bolaning nutqi o‘sadi, aqliy qobiliyati rivojlanadi, jismonan epchil va baquvvat bo‘lib o‘sishi ta’minlanadi. O‘zbek milliy o‘yinlari bolalarni imonli, e’tiqodli, aqliy barkamol, sog‘lom qilib tarbiyalashda yordam beradi.

Sport o‘yinlari - bularga voleybol, basketbol, badminton, shaharcha, lapta, stol tennisi, futbol, xokkey kiradi.

Sport o‘yinlarida, eng avvalo, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi, shuning uchun faqat sodda, biroz harakat texnikasi qoidalari, o‘yinni tashkil etishning haqiqiy elementlari tanlanadi. Shu tufayli o‘yin omillari katta kishilarda bo‘lganidek, jismoniy va asabiy zo‘riqish uyg‘otmaydi. Ayni paytda ular bolalarda maqsadga intilish, o‘rtoqlik va mas’uliyat hissi hamda sportga muhabbatni tarbiyalaydi.

Ularda bolalar musobaqasi, o‘yin estafetasi elementlari mavjud. Sport o‘yinlari harakatli o‘yinlarni uyushgan holda o‘ynaydigan va harakatli o‘yinni mustaqil tashkil etadigan bo‘lganda asta-sekin joriy etiladi. Sport o‘yinlari harakatli o‘yinlardagidan ko‘proq o‘zini tuta bilishni, uyushqoqlikni, kuzatuvchanlik muayyan harakat texnikasini, harakatning tezkor reaksiyasini egallashni talab qiladi. Agar harakatli o‘yinlarda bolalar ijodiy tashabbus ko‘rsatgan holda turli harakatlardan foydalansalar, sport o‘yinlarida harakatlarning bir qadar chegaralanganligi kuzatiladi, bu mazkur o‘yinning o‘ziga xos xususiyati va harakat faoliyati texnikasining aniqligi bilan belgilanadi.

Sport o‘yinlarida qatnashuvchilar soni aniq belgilangan, ularning vazifalari taqsimlangan, o‘yin muddati vaqti chegaralangan bo‘ladi. O‘yinlarni o‘tkazish shartlari maxsus tayyorlangan joyni, belgilangan maydonchani, tegishli jihoz va inventarlarni talab qiladi.

Oddiy harakatli o‘yinlarni o‘zgartirib turish maqsadga muvofiqdir. Biroq variantlar faqat o‘yinni rang-baranglashtirish bolalarning unga nisbatan qiziqishini saqlab turish uchungina emas, balki pedagogik vazifalar-harakatlarini takomillashtirish, birmuncha murakkab o‘yin harakatlari, qoidalarini bajarishga o‘yin vaziyati sharoitining o‘zgarishi uchun kerak bo‘ladigan jismoniy sifatlarini tarbiyalash uchun ham zarurdir. Ular bolalardan muayyan aqliy va jismoniy kuchni va, Shu bilan birga, o‘yinga nisbatan ortib boruvchi qiziqishni talab qiladi.

Masalan, «Qopqon» o‘yinining bir necha varianti mavjud bo‘lib, to‘p bilan o‘ynaladigan «Qopqon» o‘yini, «Oyoqni erdan uzib o‘ynaladigan «Qopqon o‘yini» Shular jumlasidandir.

Harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish uslubiyati.

Tarbiyachining o‘yin jarayoniga rahbarlik qilishi metodikasini egallagan bo‘lishi o‘yinlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda har bir yosh guruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi, bolalar jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining ahvoli, o‘ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, uyini o‘tkazish o‘rni, shuningdek, bolalar qiziqishlarini o‘ziga xos xususiyatlari. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongining o‘sishi, ular to‘plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o‘zgartirib turiladi.

Kichik guruhda mazmuni va qoidasiga ko‘ra sodda bo‘lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o‘yinlar tashkil etiladi. Bu o‘yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig‘ini tarbiyachining bevosita ishtirokida (barcha bolalar — qushchalar, tarbiyachi — ona qush bo‘ladi va h.k.) bajaradilar.

3 Yoshli bolalar asta-sekin yakka holda rollarni bajarishga o‘rgatib boriladi (barcha bolalar qushlar, bitta yoki ikkita bola avtomobil bo‘ladi).

O‘rta guruhda eng oddiy musobaqa usulidagi o‘yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o‘tkazish mumkin.

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko‘ra murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o‘yinlar, shuningdek, jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o‘yinlarni, o‘yin estafetasi, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikning rivojlanishi, harakat ko‘nikmalarining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

*Bolalarni yangi o‘yin bilan tanishtirish.*Uning mazmuni va qoidalarini tushuntirishi tarbiyachidan puxta tayyorgarligini talab etadi. Ayrim o‘yinlarning mazmuni oldindan bo‘ladigan suhbatlar asosida bolalarning bilimlarini oydinlashtirishi mumkin. Ularning tasavvurlari tiniqlashadi, o‘yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosiy taassurot o‘sadi.

O‘yinlarni tushuntirish ularning turlariga ko‘ra har-xil o‘tishi mumkin, biroq bu tadbir doimo emotsional jihatdan qiziqarli, bolalarni quvnoq o‘yin

faoliyatiga tayyorlaydigan, o‘yinni tezroq boshlash istagini tug‘diradigan va o‘yin topshiriqlarini ishtiyoq bilan bajarishga undaydigan bo‘lishi kerak.

Mazmunsiz o‘yinni tushuntirish qisqa, aniq va ifodali ohangda bo‘lishi lozim. Tarbiyachi o‘yin harakat izchilligini tushuntiradi, bolalar va o‘yin atributlarining joylashish o‘rni (kichik va o‘rta guruhdagi buyumlarni mo‘ljallab, katta guruhlarda esa mo‘ljalga olmay ko‘rsatadi) fazo iborasidan foydalangan holda ko‘rsatadi va qoidalarni aniqlashtiradi. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga bir necha savollar beradi.

O‘yinning qoidasi bolalarga tushunarli bo‘lsagina o‘yin quvnoqlik va uyushqoqlik bilan bilan o‘tadi.

Musobaqa elementlari mavjud o‘yinlarni o‘tkazishda tarbiyachi o‘yinni tushuntirayotib qoidalarni, o‘yin usullarini, musobaqa shartlarini aniqlashtiradi, bolalarni topshiriqlarni yaxshi bajarishga harakat qilishlar va yaxshi uddalashga ishonch bildirgan holda rag‘batlantiradi. Tarbiyachi bolalarning jismoniy kamoloti va yakka o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda musobaqalashayotgan kuchlari teng guruhlar — guruhlarni birlashtiradi; o‘ziga ishonchsiz, tortinchoq bolalarni faollashtirish maqsadida ularni jasur, faol bolalar bilan qo‘shib qo‘yadi.

Ba’zan o‘yinga sport ko‘rinishini berish uchun guruh sardorlari, hakam va uning yordamchilarini saylash mumkin.

Mazmunli o‘yinlarni tushuntirish. Tarbiyachining vazifasi bolalar ko‘z o‘ngida o‘yin vaziyatining ko‘rgazmali manzarasini gavdalantirishdan, o‘yin obrazlarini yorqin tasvirlashdan, bolalar tasavvuri va hislariga ta’sir etishdan, ularning ijodiy tashabbusni faollashtirishdan iboratdir. Buning uchun kichik guruhlarda o‘yinchoq va hikoyadan foydalanishi mumkin.

O‘rta guruhlarda — tanish o‘yinni taklif etib, qoidalarini eslatib o‘tish bilan cheklanish kifoya.

Katta guruhlarda o‘yin mazmunini eslashni bolalarning o‘zlariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ulardan biri o‘yin harakatlarining borishini bayon qiladi, ikkinchisi qoidalarni sanab beradi. Keyinchalik bolalar o‘zlari tarbiyachining yordamisiz o‘yinni tashkil eta boshlaydilar.

O‘yinda rollarni taqsimlash. Tarbiyachi pedagogik vazifalarga amal qilib (yangi kelgan bolani rag‘batlantirish yoki, aksincha, faol bola misolida botir bo‘lish qanchalik muhim ekanligini isbotlash yoki o‘ziga ishongan bola iltimosini rad etib, bu rolni qo‘rqib turgan tortinchoq bolaga topshirish) boshlovchi tayin etishi yoki bolalarni xursand qilgan holda o‘yinga o‘zi kirishib, o‘z zimmasiga boshlovchi yoki oddiy ishtirokchi rolini oladi.

Shuningdek, boshlovchi saylashni bolalarni o‘ziga havola etishi va ulardan bu rolni mazkur bolaga nima uchun topshirganlarini tushuntirib berishlarini so‘rashi mumkin.

Kichik guruhda boshlovchi rolini tarbiyachini o‘zi bajaradi. O‘yin jarayonida tarbiyachi bolalar harakati va o‘zaro munosabatlar, qoidalarini bajarilishini kuzatib boradi, qisqacha ko‘rsatmalar beradi, bolalarning hissiy holatlarini boshqarib boradi. Qoidaning ayrim bolalar tomonidan buzilishi haqida o‘yinni qayta o‘tkazishdan oldin gapiradi.

O‘yinni yakunlash. Harakatli o‘yin jismoniy yuklamani kamaytiradigan holga keltiradigan umumiy yurish bilan tugallanadi. Yurishni ahamiyatiga ko‘ra bir xil bo‘lgan kam harakatli o‘yin bilan almashtirish ham mumkin.

O‘yin tugagan zahoti uning yakunini chiqarish kerak emas, bolaning tez harakatdan dam olishga asta-sekin o‘tmasligi yurak faoliyatini va butun organizmiga noxush ta’sir etadi. Tarbiyachi o‘yinni baholashida uning ijobiiy tomonlarini ta’kidlaydi, o‘z rollarini muvaffaqiyatli bajargan, jasurlik, chidamlilik, o‘zaro o‘rtoqlik yordami ko‘rsatgan bolalar nomini aytadi va qoidalarning buzilishi hamda bolalarning shu bilan bog‘liq harakatini kuyinib ko‘rsatib o‘tadi.

Katta guruhlarda tarbiyachi bolalarni harakatli o‘yinlarni mustaqil tashkil etishga tayyorlaydi, bunda o‘yinlarning borishini va, ayniqsa, qoidalarning bajarilishini hamda bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni kuzatib boradi. U bolalarga harakatli o‘yin variantlarini uning mazmuni, qoidasini, o‘yin harakatlarini o‘zgartirgan holda o‘ylab topish, keyinchalik yangi o‘zi o‘ylab o‘yin topish kabi topshiriqlar beradi.

Katta guruh bolalarida mustaqillik, tashkilotchilik malakasini tarbiyalash maqsadida tarbiyachi ularga kichik guruh bolalari bilan o‘yin tashkil etishini taklif etadi. O‘yin kichik guruh tarbiyachisi kuzatuvi ostida o‘tkaziladi.

Harakatli o‘yinlar bolalarni har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. O‘yin faoliyati qaysi shaklda ifodalanmasin bolani quvontiradi, ularda ijobiy hislarni uyg‘otadi. Harakatli o‘yinlar bola dunyoqarashini kengaytiradi, atrof-muhitni bilishida o‘ziga xos vosita hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlardagi qoidalar o‘yinning borishini belgilaydi, bolalar harakat faoliyatini, o‘zaro munosabatlarini yo‘lga soladi, axloqiy- irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Har bir bolaning o‘yin qoidasini anglashi va unga rioya qilishda kattalarning rahbarligi katta ahamiyatga egadir.

O‘yinlar orqali bolalarda halollik, adolatlilik, do‘stlik, botirlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlilik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

O‘yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, tafakkur, tuShuncha va mo‘ljal olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, o‘yinlar ijodiy xaYol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, harakatli o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi.

Bola o‘yin faoliyati tufayli fazo va buyum voqeligini amalda o‘zlashtiradi, shu bilan birga, ularda fazoni idrok etish mexanizmining o‘zi ham o‘ta takomillashadi.

Masalan, bola tomonidan harakat yo‘nalishini mustaqil tanlash va harakatini o‘yin qoidasida qat’iy belgilangan yo‘nalishda bajarishi, bir tomondan, o‘yin vaziyatini (bevosita idrok qilinadigan) va ko‘rish-motor reaksiyasini (o‘yin harakatlarini) darhol baholashni, ikkinchi tomondan o‘z harakatlarini fazo-o‘yin muhitida anglash va tasavvur qilishni talab etadi.

Harakatli o‘yinlar bolalarda oddiy vaqt mo‘ljalini shakllantiradi. Ular quyidagilarda ifodalaniladi: o‘yin harakatlarining izchilligini tushunib olishda avval, so‘ng, bundan keyin, bundan oldin, barini bir vaqtda kabi o‘yin topshiriqlarini signalga ko‘ra, bolalar uchun belgilangan muddat doirasida tez bajarishida ko‘rinadi. Bu o‘yinlarga bolalar fazoda mo‘ljal olishni, harakatlar izchilligi va ularga vaqt davomida amal qilishni mashq qiladi.

O‘yinlarning mazmunini, butun o‘yin vaziyatini, uning qoidalarini, personajlar harakatini mustaqil tushuntirish, bolalarning joylashish o‘rnini, o‘yin atributlarini va harakat yo‘nalishlarini fazoviy iboralarni ishlatgan holda ko‘rsatish, o‘tkazilgan o‘yinga baho berish bolalarning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Harakatli o‘yinlar katta yoshidagi bolalarda ijodiylikni rivojlanishi uchun qulaylik yaratadi. Bunda bolalar eshitgan ertaklari mazmuni asosida kichik o‘yinlarni o‘ylab topishlari mumkin bo‘lgan harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni va shakliga ko‘ra estetik faoliyat hisoblanadi. O‘yin harakatlarining rang-barangligi ularni bolalarning aniq chaqqonlik bilan, o‘ziga xos ifodali bajarishlarida aks etadi. Harakatli o‘yinlarda musiqani qo‘llash ham katta estetik ahamiyatga egadir.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda harakatlar go‘zalligini va madaniyatini unutmaslik kerak: diqqatni harakatlari birmuncha ifodali bolalarga qaratish, obrazlarni ifodali, muvaffaqiyatli bera olganlarni rag‘batlantirish kerak.

Bu turli emotsional harakatlardan iborat murakkab faoliyatdir. Bu faoliyat belgilangan qoidalar asosida to‘satdan o‘zgaradigan sharoit va vaziyatlarda bajariladi. Harakatli o‘yin shug‘ullanuvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish xususiyatlari bilan farqlanadi.

O‘yin davomida to‘satdan o‘zgaradigan vaziyatlarda harakat qilish va tezkorlik, chaqqonlik (chalg‘itish, «tuzoq»dan qochish kabi jismoniy fazilatlar namoyon bo‘ladi.

O‘yin paytida bolalar faoliyati obrazli syujet yoki o‘yin vazifalari asosida tashkil etiladi va bu bolaning jismoniy mashqlarni ishtiyoq bilan va uzoq muddat bajarishi uchun ijobiy hislar uyg‘otadi. Bu, o‘z navbatida, ularning organizmga ijobiy ta’sirni kuchaytiradi hamda chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘yin qoidalariga rioya qilish, axloqiy fazilatlar (o‘zaro yordam, ongli intizom va h.k.)ni tarbiyalashga yordam beradi. O‘yin faoliyatida majmua xarakteriga ega turli harakatlar uyg‘unligi (yugurish, sakrash va h.k.) ko‘riladi.

O‘yinlardan, ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ishda foydalanish yaxshi natijalarni beradi.

Harakatli o‘yinlar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks ta’lim-tarbiya jarayonidir. Bu jarayonning asosini tashkil etuvchi bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishga, harakat ko‘nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg‘ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijobiy ta’sir etadi. Harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari va metodlaridan biri sifatida yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni samarali hal etishga yordam beradi.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda erishiladigan sog‘lomlashtirish samarasi bolalarning o‘yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola psixikasiga yaxshi ta’sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Emotsional ko‘tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo‘lgan maqsadga erishishga intilish uyg‘otadi va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o‘zaro mosligida, fazoda va o‘yin sharoitlarida aniq mo‘ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur’atda bajarilishida ifodalanadi. Bolalarning maqsadga erishishiga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asnosida turli to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi.

Harakatli o‘yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayonida bola o‘z e’tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. U o‘yin shartlariga muvofiq harakat qiladi, bunda chaqqonlik ko‘rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi. Shuning uchun masalan, «Bo‘ri jarlikda» o‘yini bolalar yugurib kelib uzunlikka sakrashni bilib olganlaridan keyin beriladi.

Harakat faoliyati sifatida harakatli o‘yin muayyan maxsus xususiyatlarga ega. U boladan signal va o‘yinda to‘satdan bo‘ladigan o‘zgarishlarga tezda javob berishni talab qiladi. O‘yinda yuz beradigan turli vaziyatlar, harakatlar mushak

tarangligi darajasining o‘zgarishi zaruratini keltirib chiqaradi. Masalan, «Tuzoq» o‘yinida har bir bola boshlovchi harakatini diqqat bilan kuzatib borishi lozim: boshlovchi unga yaqinlashganda qarama-qarshi tomonga shitob bilan qochib o‘tadi; o‘zini xavfsiz sezgach, sekin harakat qilib, to‘xtab turadi; boshlovchi yaqinlashganda yana harakatini tezlashtiradi.

Deyarli har bir harakatli o‘yinda harakatlar va bolalar harakatiga oid signallar mavjud. Bunday faol harakat faoliyati bola qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarini takomillashtirgan va muvozanatlashtirgan holda nerv tizimni mashq qildiradi, shuningdek, kuzatuvchanlik, topqirlik, o‘zgaruvchan atrof-muhitda mo‘ljal olish qobiliyati, yuz bergan mushkul holatdan qutilish yo‘lini topish, tezda qaror qabul qilish va uni amalga oshirish, botirlik, chaqqonlik, tashabbus ko‘rsatish, maqsadga erishishning mustaqil usulini tanlashni tarbiyalaydi.

Harakatli o‘yinlarning kelib chiqishi qadim xalq pedagogikasiga borib taqaladi. Ilk yoshli bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakati bilan bog‘liq ovunmachoqlar, ermak o‘yinlar yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega bo‘lgan (o‘z ichiga bolalarni rom qiluvchi o‘yin boshlanmalari, xirgoyilari, sanashmachoqlarni oluvchi) xalq o‘yinlari katta o‘rin olgan. Bularning hammasi hozirga qadar badiiy jozibadorligi, tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda va qimmatli o‘yin folklorini tashkil etadi.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazish metodikasi. Tarbiyachining o‘yin jarayoniga rahbarlik qilishi metodikasini egallagan bo‘lishi o‘yinlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy sharti hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda har bir yosh guruhning ish sharoiti, chunonchi bolalar jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining holati, o‘ziga xos xususiyatlari; yil fasli, kun tartibi, uyini o‘tkazish o‘rni, shuningdek, bolalar qiziqishlarini o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq bolalar ongining o‘sishi, ular to‘plagan harakat tajribasi, maktabga tayyorlash zaruriyati kabi omillarni hisobga olgan asta-sekin murakkablashtirib borilgan holda o‘zgartirib turiladi.

Kichik guruhda o‘yin mazmuni va qoidasiga ko‘ra sodda bo‘lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o‘yinlar tashkil etiladi. Bu o‘yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig‘ini tarbiyachining bevosita ishtirokida (barcha bolalar — qushchalar, tarbiyachi — ona qush bo‘ladi va h.k.) bajaradilar.

3 yoshli bolalar asta-sekin yakka holda rollarni bajarishga o‘rgatib boriladi (barcha bolalar qushlar, bitta yoki ikkita bola avtomobil bo‘ladi).

O‘rta guruhda eng oddiy musobaqa usulidagi o‘yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o‘tkazish mumkin.

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshiriqni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko‘ra murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o‘yinlar, shuningdek, jamoa musobaqalaridan iborat jamoaviy o‘yinlar: o‘yin estafetasi, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko‘nikmalarining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bolalarni yangi o‘yin bilan tanishtirish. O‘yin mazmuni va qoidalarini tushuntirish tarbiyachidan puxta tayyorgarlikni talab etadi. Ayrim o‘yinlarning mazmuni oldindan bo‘ladigan suhbatlar asosida bolalarning bilimlarini oydinlashtirish uchun xizmat qilishi mumkin. Bunda ularning tasavvurlari aniqlashadi, o‘yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosiy taassurot kengayadi.

O‘yinlarni tushuntirish ularning turlariga ko‘ra har xil o‘tishi mumkin, biroq bu tadbir doimo emotsional jihatdan qiziqarli, bolalarni quvnoq o‘yin faoliyatiga tayyorlaydigan, o‘yinni tezroq boshlash istagina tug‘diradigan va o‘yin topshiriqlarini ishtiyoq bilan bajarishga undaydigan bo‘lishi kerak.

Mazmunsiz o‘yinni tushuntirish qisqa, aniq va ifodali ohangda bo‘lishi lozim. Tarbiyachi o‘yin harakat izchilligini tushuntiradi, bolalar va o‘yin atributlarining joylashish o‘rni (kichik va o‘rta guruhda buyumlarni mo‘ljallab yoki aksincha, katta guruhlarda esa mo‘ljalga olmay ko‘rsatadi) fazo iborasidan foydalangan holda ko‘rsatadi va qoidalarni aniqlashtiradi. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga bir necha savollar beradi.

O‘yinning qoidasi bolalarga tushunarli bo‘lsagina o‘yin quvnoqlik va uyushqoqlik bilan bilan o‘tadi.

Musobaqa elementlari mavjud o‘yinlarni o‘tkazishda tarbiyachi o‘yinni tushuntirayotib qoidalarni, o‘yin usullarini, musobaqa shartlarini aniqlashtiradi, bolalarni topshiriqlarni yaxshi bajarishga harakat qilishlar va yaxshi uddalashga ishonch bildirgan holda rag‘batlantiradi. Tarbiyachi bolalarning jismoniy kamoloti va yakka o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda musobaqalashayotgan kuchlari teng guruhlar — guruhlarni birlashtiradi; o‘ziga ishonchsiz, tortinchoq bolalarni faollashtirish maqsadida ularni jasur, faol bolalar bilan qo‘shib qo‘yadi.

Ba’zan o‘yinga sport ko‘rinishini berish uchun guruh sardorlari, hakam va uning yordamchilarini saylash mumkin.

Mazmunli o‘yinlarni tushuntirish. Tarbiyachining vazifasi bolalar ko‘zi o‘ngida o‘yin vaziyatining ko‘rgazmali manzarasini gavdalantirishdan, o‘yin obrazlarini yorqin tasvirlashdan, bolalar tasavvuri va hislariga ta’sir etishdan, ularning ijodiy tashabbusni faollashtirishdan iboratdir. Buning uchun kichik guruhlarda o‘yinchoq va hikoyadan foydalanishi mumkin.

O‘rta guruhlarda — tanish o‘yinni taklif etib, qoidalarini eslatib o‘tish bilan cheklanishi kifoya.

Katta guruhlarda o‘yin mazmuni eslashni bolalarning o‘zlariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ulardan biri o‘yin harakatlarining borishini baYon qiladi, ikkinchisi qoidalarni sanab beradi. Keyinchalik bolalar o‘zlari tarbiyachining yordamisiz o‘yinni tashkil eta boshlaydilar.

O‘yinda rollarni taqsimlash. Tarbiyachi pedagogik vazifalarga amal qilib (yangi kelgan bolani rag‘batlantirish yoki aksincha, faol bola misolida botir bo‘lish qanchalik muhim ekanligini isbotlash yoki o‘ziga ishongan bola iltimosini rad etib, bu rolni qo‘rqib turgan tortinchoq bolaga topshirish) boshlovchi tayin etishi yoki bolalarni xursand qilgan holda o‘yinga o‘zi kirishib o‘z zimmasiga boshlovchi yoki oddiy ishtirokchi rolini oladi.

Shuningdek, boshlovchi saylashni bolalarni o‘ziga havola etishi va ulardan bu rolni mazkur bolaga nima uchun topshirganlarini tuShuntirib berishlarini so‘rashi mumkin.

Kichik guruhda boshlovchi rolini tarbiyachini o‘zi bajaradi. O‘yin jarayonida tarbiyachi bolalar harakati va o‘zaro munosabatlar, qoidalarini bajarilishini kuzatib boradi, qisqacha ko‘rsatmalar beradi, bolalarning hissiy holatlarini boshqarib boradi. Qoidaning ayrim bolalar tomonidan buzilishi haqida o‘yinni qayta o‘tkazishdan oldin gapiradi.

O‘yinni yakunlash. Harakatli o‘yin jismoniy yuklamani kamaytiradigan holga keltiradigan umumiy yurish bilan tugallanadi. Yurishning ahamiyatiga ko‘ra bir xil bo‘lgan kam harakatli o‘yin bilan almashtirish ham mumkin.

O‘yin tugagan zahoti uning yakunini chiqarish kerak emas, bolaning tez harakatdan dam olishga asta-sekin o‘tmaslik yurak faoliyati, shuningdek, butun organizmiga salbiy ta’sir etadi. Tarbiyachi o‘yinni baholashida uning ijobiiy tomonlarini ta’kidlaydi, o‘z rollarini muvaffaqiyatli bajargan, jasurlik, chidamlilik, o‘zaro o‘rtoqlik yordami ko‘rsatgan bolalar nomini aytadi va qoidalarning buzilishi hamda bolalarning shu bilan bog‘liq harakatini kuyinib ko‘rsatib o‘tadi.

Katta guruhlarda tarbiyachi bolalarni harakatli o‘yinlarni mustaqil tashkil etishga tayyorlaydi, bunda o‘yinlarning borishini va, ayniqsa, qoidalarning

bajarilishini hamda bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni kuzatib boradi. U bolalarga harakatli o‘yin variantlarini uning mazmuni, qoidasi, o‘yin harakatlarini o‘zgartirgan holda o‘ylab topish, keyinchalik o‘zi yangi o‘yin o‘ylab topish kabi topshiriqlar beradi.

Katta guruh bolalarida mustaqillik, tashkilotchilik malakasini tarbiyalash maqsadida tarbiyachi ularga kichik guruh bolalari bilan o‘yin tashkil etishini taklif etadi. O‘yin kichik guruh tarbiyachisi kuzatuvi ostida o‘tkaziladi.

Harakatli o‘yinlar bolalarni har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. O‘yin faoliyati qaysi shaklda ifodalanmasin bolani quvontiradi, ularda ijobiy hislarni uyg‘otadi. Harakatli o‘yinlar bola dunyoqarashini kengaytiradi, atrof-muhitni bilishida o‘ziga xos vosita hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlardagi qoidalar o‘yinning borishini belgilaydi, bolalar harakat faoliyatini, o‘zaro munosabatlarini yo‘lga soladi, axloqiy- irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Har bir bolaning o‘yin qoidasini anglashi va unga rioya qilishida kattalarning rahbarligi muhim ahamiyatga egadir.

O‘yinlar orqali bolalarda halollik, adolatlilik, do‘stlik, botirlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlilik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

O‘yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, tafakkur, tushuncha va mo‘ljal olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, o‘yinlar ijodiy xayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, harakatli o‘yinlar bolaning aqliy ijobiy rivojlanishiga yordam beradi.

Bola o‘yin faoliyati tufayli fazo va buyum voqeligini amalda o‘zlashtiradi, Shu bilan birga, fazoni idrok etish mexanizmining o‘zi ham juda takomillashadi.

Masalan, bola tomonidan harakat yo‘nalishini mustaqil tanlash va harakatini o‘yin qoidasida qat’iy belgilangan yo‘nalishda bajarishi bir tomondan o‘yin vaziyatini (*bevosita idrok qilinadigan*) va ko‘rish-motor reaksiyasi (*o‘yin harakatlari*)ni darhol baholashni, ikkinchi tomondan o‘z harakatlarini fazo-o‘yin muhitida anglash va tasavvur qilishni talab etadi.

Harakatli o‘yinlar bolalarda oddiy vaqt mo‘ljalini shakllantiradi. Ular quyidagilarda ifodalanadi: o‘yin harakatlarining izchilligini tushunib *olishda avval, so‘ng, bundan keyin, bundan oldin, barini bir vaqtda* kabi o‘yin topshiriqlarining signalga ko‘ra, bolalar uchun belgilangan muddat doirasida tez bajarishlarida ko‘rinadi. Bu o‘yinlarda bolalar fazoda mo‘ljal olishni, harakatlar izchilligi va ularga vaqt davomida amal qilishni mashq qiladilar.

O‘yinlar mazmunini, butun o‘yin vaziyati, uning qoidalari, personajlar harakatini mustaqil tushuntirish, bolalarning joylashish o‘rni, o‘yin atributlarini

va harakat yo‘nalishlarini fazoviy iboralarni ishlatgan holda ko‘rsatish, o‘tkazilgan o‘yinga baho berish bolalarning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Harakatli o‘yinlar katta bog‘cha yoshidagi bolalarda ijodiylikning rivojlanishi uchun qulaylik yaratadi. Bunda bolalar eshitgan ertaklar mazmuni asosida kichik o‘yinlarni o‘ylab topishlari mumkin. Harakatli o‘yinlar o‘z mazmun va shakliga ko‘ra estetik faoliyat hisoblanadi. O‘yin harakatlarining rang-barangligi ularni bolalar aniq chaqqonlik bilan, o‘ziga xos ifodali bajarishlarida aks etadi. Harakatli o‘yinlarda musiqani qo‘llash katta estetik ahamiyatga egadir.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda harakatlar go‘zalligini va madaniyatini unutmaslik kerak: bunda diqqatni harakatlari birmuncha ifodali bolalarga qaratish, ularning obrazlarni ifodali, muvaffaqiyatli bera olganlarni hisobga olgan holda rag‘batlantirish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sport o‘yinlari

Bolalarning harakat faoliyatini tashkil etishda sport o‘yinlari va mashqlariga katta o‘rin beriladi.

Chang‘ida yurish, konkida, chanada uchish, velosipedda, samokatda, rollerda yurish, shuningdek, suzish sport mashqlariga mansubdir. Ularning barchasi asosiy mushaklarni mustahkamlashga, suyak, yurak-qon tomir, nafas olish va asab tizimlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, mashg‘ulotlar jarayonida bolalarda jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezkorlik, chidamkorlik va h.k.), shuningdek, ritmlilik, harakatlar koordinatsiyasi, fazoda mo‘ljal olish malakasi rivojlanadi. Velosipedda yurish, konkida uchish vestibulyar barqarorlikni rivojlantiradi.

Tegishli kiyimda turli temperaturada toza havodagi mashg‘ulotlar quyosh nurida, shuningdek, suvda chiniqish modda almashishini kuchaytiradi va chiniqtirishga xizmat qiladi.

Sport mashqlaridan iborat mashg‘ulotlar bolalarga tabiat hodisalarini bilishga (qor, shamol, muz, suv va h.k.) sirg‘alish, tormozlanish haqidagi tushunchalarni, shuningdek, sport-roller, velosiped tuzilishi haqidagi bilimlarini egallashlariga imkon beradi.

Sport mashqlari mushaklarni mustahkamlashga, suyak, yurak-qon tomir, asab tizimini rivojlantirishga yordam beradigan mashqlardir.

Ochiq havoda tashkil etiladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida bolalarni sport mashqlari va sport o‘yinlari elementlariga o‘rgatiladi. Bu ishni, asosan, tarbiyachi olib boradi, lekin bolalarning sport mashqlarini bajarish malakalarini egallab va sport o‘yinlarini o‘ynashni bilib olishlari uchun ularni doimo sayrlar vaqtida takrorlash va mustahkamlab borish kerak.

Ob-havo sharoiti, sport jihozlarining bor-yo‘qligi, bolalarning u yoki bu sport o‘yini va mashqlarini egallab olish darajasiga qarab, tarbiyachi rejada ko‘rsatilgan sport turlarini hafta bo‘yicha (ertalabki va kechki) hamma sayrlarga taqsimlaydi. Ayrim hollarda bolalar bir necha o‘yin turlarini mashq qilishlari

mumkin. Masalan, ba’zi birlari velosiped uchadilar, ayrimlari stol tennisi va badminton o‘ynaydilar, so‘ng o‘zaro o‘rin almashadilar,

Dastlab tarbiyachi sport o‘yinlari va mashqlarida ishtirok etishga jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida mashqni yetarlicha o‘zlashtirmagan bolalarni jalb etadi.

Keyinroq esa hamma bolalarning faol bo‘lishini ta’minlashga harakat qilishi kerak. Bolalar faqat sport o‘yinlari elementini o‘zlashtirib olishlarigina emas, balki ularning asosiy qoidalarini foydalanayotgan sport inventarlari qismlarining nomini o‘zlashtirishlari, ularni asrab-avaylab, saqlashni ham bilishlari lozim. Agar tarbiyachining o‘zi sport o‘yinlarida faol ishtirok etib, bolalarning xatti-harakatiga rahbarlik qilsa, sport o‘yinlariga o‘rgatish ancha tezlashadi.

Milliy harakatli o‘yinlarni mashg‘ulotlar davomida qo‘llash bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi, ularning kayfiyati va boshqa ruhiy sifatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tariximizdan meros bo‘lib qolgan o‘zbek xalq milliy o‘yinlarini hayotga tatbiq etishga keng yo‘l ochib berilishi, ularning ommaviy tus oldirilishi, oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda ularni tashkillashtirish o‘sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’sir etishi muqarrardir.

Milliy xalq o‘yinlari qadim-qadim zamonlardan buyon xalq marosimlari, urf-odatlarida mustaqil bir soha sifatidagi musobaqalarda, baxshilarda keng qo‘llangan bo‘lib, ming yillar davomida rivojlanib, takomillashib kelgan.

Ming yillar davomida bizgacha etib kelgan o‘zbek milliy xalq o‘yinlari: «Otda chopish», «Qiz quvlash», «Uloq», «Kamonda otish», «Xo‘roz jangi»,

«Besh tosh», «Sapalak», «Jambalak hola», «Kurash», «Kim tez o‘raydi», «Chillak» va boshqa ko‘plab o‘yinlar orqali botirlik, epchillik, muvozanatni saqlash sifatlarini rivojlantirishda, hamda qaddi-qomatni shakllantirish, axloq odob, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni sayqal toptirishda va, albatta, sog‘liqni mustahkamlashda eng samarali vosita bo‘lib kelgan.

Xalq milliy o‘yinlari, jumladan, o‘zbek milliy o‘yinlari barcha xalq elatlari kashfiyotlari kabi (*musiqa, kulolchilik, gilam to‘qish asboblari, ashula va raqs va boshqalar)* insoniyat tarixining turli ijtimoiy iqtisodiy bosqichlarida taraqqiy etgan o‘ziga xos xususiyatlari asosida ixtiro qilingan va shakllanib kelgan O‘zbek xalq o‘yinlarining o‘ziga xos urf- odatlaridan, turmush sharoitlaridan, yashash iqlimi, tarixiy obidalar, atrof-muhit sharoitidan kelib chiqqan bo‘lib, kishilarning Yosh, jins, salomatligiga ko‘ra qo‘llangan, lekin shu vaqtgacha aksariyat mutaxassislar o‘zbek xalq o‘yinlariga alohida tasnif (klassifikatsiya) va tavsif (xarakteristika) berishni ko‘zda tutmaganlar yoki etarli darajada ahamiyat bermaganlar.

Ta’kidlash joizki, agar shunday tasnif va tavsif berilsa, o‘zbek xalq o‘yinlari, umuman olganda, harakatli o‘yinlar ancha yutuqqa ega bo‘lgan edi. Chunki har bir o‘yinning tasnifini va tavsifini bilgan holdagina undan foydalanish zaruriyati ham, joyi xam to‘g‘ri belgilanadi.

Ma’lumki, o‘zbek xalq o‘yinlari o‘z ichiga harakat jihatidan har xil jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajratilib turadi. Shu bois, ularning yo‘nalishlari bo‘yicha ajrata bilish lozim. Demak, ularni tasniflash (klassifikatsiyalash) zarurati tug‘iladi.

O‘zbek xalq o‘yinlarining tasnifi.

Hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantiruvchi o‘yinlar:

Osilish va osilib chiqish: «Maymunchalar», «Oq ayiqlar»; yurish, yugurish: «Quvlashmachoq», «Mokki»; O‘tirib-turish: «Baqa», «Tovuq va tulkilar»; to‘xtash, sakrash: «Qarmoqcha».

Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi o‘yinlar: kuch: «Tortishmachoq»; tezkorlik: «Kun va tun»; epchillik: «To‘p uchun kurash», «Lapta», «Qirq tosh», «Besh tosh»; chidamkorlik: «Quvib et»; egiluvchanlik: «Ko‘prik va muShuk», «Kurash», «Sapalak», «Xo‘roz jangi».

Aqliy-ruhiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi o‘yinlar: diqqat: «Ta’qiqlangan harakat»; xotira «Daqiqa»; hissiyot: «To‘xta»; tafakkur: «Shaxmat»; ayyorlik «Mendan zo‘r»; jasurlik «Cho‘nqa shuvoq».

Uy-ro‘zg‘or ishlariga xos harakat malakalarini shakllantiruvchi o‘yinlar: «Supur-supur», «Qovun uzatishi».

Kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi o‘yinlar: «Burgut va burgutchalar», «Otishma».

Nutq va talaffuzni shakllantiruvchi o‘yinlar: «Kim oladi», «Oq terakmi, ko‘k terak», «Paxmoq kuchuk», «Jambalak sochli hola».
Hisob-kitob va tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi o‘yinlar: **«Besh tosh», «Lanka», «Qirq tosh».**

Yilning turli fasllarida qo‘llanadigan o‘yinlar: «Barrak», «Yomg‘ir Yog‘oloq», «Chillak», «Topishmachoq top», «Lanka», «Tez ayt», «Yong‘oq».

Kunduz va tunda o‘tkaziladigan o‘yinlar : «Oq suyak», «Cho‘loq qarg‘a».

Suvda o‘tkaziladigan o‘yinlar: «Suvda quvlashmachoq «, «Tez suzish», «Suv ostida suzish».

Turli yoshda va kattalar o‘rtasida o‘tkaziladigan o‘yinlar: «Quvlashmachoq», «Bekinmachoq», «Bayroqcha uchun kurash», «Kun va tun», «Oq terakmi, ko‘k terak», «Yong‘oq o‘yini».

4.3. Bolalar organizmini sog‘lomlashtirish, chiniqtirish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirib borish.

